

NAZAR ESHONQULNING “GO‘R O‘G‘LI” ROMANIDA TUSH  
RAMZIYLIK MODUSI SIFATIDA

**To‘liboev Xursandbek Bazarbaevich,**  
*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori*  
*(PhD) Renessans ta‘lim universiteti dosenti*

*Annotasiya:* Ushbu maqolada N.Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li yoxud Hayot suvi” nomli romanidagi tush motivi tadqiq qilinadi. Tushning badiiy adabiyotga kirib kelishi, modus sifatida qaralishi va uning jahon so‘z san’atkorlari tomonidan e’tirof etilishi haqida atroflicha munosabat bildiriladi.

*Kalit so‘z:* tush, modus, obraz, xarakter, konsepsiya, syujet va kompozisiya, talqin va tasvir.

XX asrning 90-yilarida yozib boshlangan Nazar Eshonqulning “Go‘r o‘g‘li yoxud Hayot suvi” romani yozuvchining o‘zi e’tirof etganidek “Lahad” deb nomlanib, tuzum ichkarisidagi insoniy tuyg‘ularning mahv etilishi, jamiyatdagi inson shaxsiga bo‘lgan munosabatlarning haqqoniy manzarasini aks ettirishga bag‘ishlanadi. Jamiyat hayotidagi tub burilish – istiqloлга qarab intilish har bir shaxsning erkin harakati, ongli va tafakkur kishisining buyuk orzusi bo‘lib hisoblanadi. Salkam 100 yil temir ihotada ushlab turilgan zulmning millat ongi va tafakkuriga qilingan qatliomning naqadar jirkanch ahvolga kelib qolishi, birgina ramziy ishora, shtrixlar negizida yuzaga chiqarishga harakat qilingan. Romandagi N. ismli bosh qahramonning jamiyat tartibotlarida erkin iroda yo‘nalishini hech kim silliq qabul qilolmaydi. Asardagi “tush ramzi” syujet qismlarini bir-biriga ulashda, tag ma‘noni yanada teranroq idroklashga keng yo‘l ochadi.

Tush o‘zi nima? degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bizgacha bu borada juda ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Z.Freyd, K.Yung, E.Fromm kabi psixoanalitiklar masalaga turlicha misollar negizida kirib borishga intilganlar. Jumladan, “Lotin Amerikasining mashhur yozuvchilari ichida atayin tushga bag‘ishlangan hikoya yozmagan yozuvchini uchrata olmaymiz. Tush haqida hikoya yozish – ramzlardan qanchalik foydalana olish mahoratini belgilay boshladi. Freyd, Yung, Frommlar tadqiqotiga ko‘ra tush miyaning alohida funksiyasiki, unda barcha narsa ramz, niqob bilan keladi. Odam o‘zi anglamagan istak, xohish, qo‘rquv, mayl, umid, orzu, zavq, hayrat, vahm miyada o‘rnashib qoladi. Hatto bolalikdagi kechinmalar ham yo‘qolib ketmaydi: miyaning qaysidir burchagida payt poylab yotadi; oradan 40-50 yil o‘tgach yuzaga qalqib chiqadi va inson hayotini o‘zgartirib yuboradi”[Eshonqulov J. 1: 103.] . Binobarin, tushning nazariy tadqiqot ob'ektiga aylanishiga qariyb bir asrdan oshiq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, haligacha bu borada xilma-xil tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyo ahli birinchi jahon urushini boshidan o‘tkazgandan keyin ruhiy tushkunlikni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rdi. Bu jarayonda psixoanalitika fani alohida rivojlandi. Badiiy adabiyotdagi tush, ruhiy holat, xarakter, moduslarni o‘rganish mexanizmini joriy qildi. Demak, ilmiy atamaning bir ehtiyoj samarasi o‘laroq

yuzaga kelishi, davriy nashrlarning rang-baranglashuviga imkon berdi. Freyd, Yung, Frommlar bir-biridan alohida tadqiqot ishlarini boshlab, badiiy adabiyotdagi ramzlar tilini “kashf etish”ga jiddiy kirishdilar.

Yozuvchi Nazar Eshonqulning avval hikoya, qissa va keyinchalik romanlarida – ijodiy konsepsiya, tasvir ekzistensiyasiga evrilishi tush ramziy tilining o‘ziga xos qiralarini yanada teranroq o‘rganishni taqozo etmoqda. Shunisi muhimki, yozuvchi qaysi rakursdan turib masalaga yondoshmasin, qahramon ruhiyatini chigal bir sinovlardan olib, yagona bir borliq ichida mavjudligini isbotlashga yo‘naltira olganligida qabarib ko‘rinadi. Mana shu jihat yozuvchi ijodida tush ramziy modusining boshqa adiblardan ajralib turishini taqozolaydi. Masalan, “Go‘r o‘g‘li” romanida qahramonni qoq ikkiga bo‘lib tashlayotgan jamiyat hayotini oydinlashtirar ekan, tushga alohida kriteriya sifatida qaraydi:

“...U shahar zabt etilgach, qabristonda yashirinib yurdi. Qabrlar orasida xiyla keng lahm qazib olgan, u er issiq va bexavotir edi. Tunlari tanasini ayoz va izg‘irindan asrash uchun ustiga tuproq tortib uxlar, uzun va tubsiz xayollarga cho‘mardi. Bu xayol surishlar uning baxtli lahzasiga aylanib qolgandi. Biroq qaysidir kechasi itlarning qattiq hurishidan uyg‘onib ketdi. Nazarida butun dunyoni it bosganday edi; hurish chor tarafdan kelar, ba'zida tantanovar baqiroq-chaqiroqlar eshitilardi. U g‘animlar yana nimanidir boshlaganini angladi va lahmndan sekin bosh ko‘tarib qaradi – Oy sutday yorug‘ edi va qabriston ustiga tirqirab to‘kildardi. G‘animlar bir to‘da it ergashtirib olishgan va qabrlarni ochib, u erdagi suyaklarni itlar oldiga tashlar, naq eshakday keladigan hiroday itlar suyaklarni qarsillatib chaynashar: atrofga birrov ko‘z yugurtirib, irillab qo‘yishar, tumshuqlari bilan ochiq qabrlarni titishar va hadeb dumini likillatishardi”[Eshonqul N. 2: 163-164.].

Yozuvchi N. ismli qahramonning tilidan hikoya qilinayotgan – tush aslida jamiyat hayotining haqqoniy manzarasi. Negaki, insonning istaklari, xohish va mayllari bo‘g‘ilgan, zulm evaziga tartib berilgan qudratli imperiyaning parti ketib sharti qolganligidan dalolat edi. Bir saltanatda diktator amaldor uzoq o‘tirishi, Allohni jamiyat a'zolariga unuttirib, o‘zini xuddi Xudo yanglig‘ tutishi mumkin. Bu juda ko‘p davom etmaydi. Har qanday ta'qibu tazyiqlardan charchagan xalq, olomon va saroy ayonlari oldingi qilingan ishning teskarisini qilishga mahkum ekanligini ich-ichlaridan sezib yashaydi. Natijada o‘zlari ham bunga qattiq rioya qiladilar. Voz kechilishi kerak va shart bo‘lgan siyosatdan birin-ketin qutulmoq payida bo‘ladi. Sobiq ittifoq davrining ichkaridan boshlangan tanazzulini haqqoniy manzarasi “Go‘r o‘g‘li” romanida ishora va ramzlar tilida, metaforik ohangda talqin qilingani, F.Kafka, A.Kamyu, M.Prust singari adiblar boshlab bergan ekzistensializm oydinlari ekanligini to‘laqonli dalolatlaydi. N.Eshonqulning qahramoni ham nihoyatda ehtiyotkor odam. Uning jamiyat va men orasida, ziddiyatlar qurshovida

kechayotgan ayanchlli umri ana shu sistemaning bir bo‘lagi ekanligini isbotidir. Yozuvchi vaqtida yozishi mumkin bo‘lmagan, hali qo‘rquv shiddati pasaymagan, olomonchilik kayfiyati nihoyatda avjiga chiqqan bir paytda katta muammoni idrok sezimlarida ifodalay olgani tahsinga sazovor va jasoratli yumush. Mana shu og‘riqli iztiroblar yozuvchining nima demoqchi bo‘lganidan shahodat beradi.

Mashhur psixoanalitik Erix Fromm shunday yozadi: “Qadimgi va hozirgi zamon odamlarining tushlari va afsonalari tarixiy davr boshlanishidagi odamlarning tush va afsonalari kabi ramziy tilda ifodalangan. Ramziy til – insonning ichki kechinmalari, hissiyotlari va fikrlari, tashqi olamdagi voqea-hodisalarni sezgi orqali qabul qilish va ifodalash shaklidir. Bu til biz yashayotgan olamdagi zamon va makon qonunlariga to‘g‘ri kelmaydi, balki o‘zining shiddati va birikish xususiyati bilan farq qiladi. Bu til insoniyat tomonidan kashf qilingan tariximizdagi barcha madaniyatlar, xalqlarga taalluqli universal tildir. Uning o‘ziga xos grammatikasi va sintaksisi bor. Agar afsonalar, ertaklar va tushlarning mazmunini bilmoqchi bo‘lsangiz shularni o‘rganing”[Erix Fromm. 3: 42-43.]. Darhaqiqat, Fromm ta’kidlayotgan universal til – ramz va tush ta’biri har bir davr uchun bir xil ma’no kasb etishi tayin. Chunki inson uyqu va karaxt holatda xuddi uyg‘oq va sof tasavvurga ega paytdagi holatini ham aynan takrorlashi mumkin. Binobarin, N, Eshonqul qahramonlari ko‘proq tush ko‘rgan payti aniq mazmunni va masalani butun ikir-chikirlarigacha ifodalay oladi. Saroy va lahad orasidagi masofani insonning qo‘rquv instinkti boshqaradi. Itlar ham qandaydir ramziy kalit vazifasini o‘tamoqda. Yuqorida romandan olingan parchadagi har bir buyum joylashuv tartibi va elkasidagi vazifasi nuqtai nazaridan keng tafakkur qilishni taqozo etmoqda. Chunonchi it qabristonni o‘rab olishi, tiriklikni qabristonga aylantirib, hatto o‘lgan odamning ShAXSidan ham hadiksirashi real manzara. Chunki jamiyatda odamlar bir-birlariga hech qachon ishonishmay qo‘yishgan. Bir-birlarining soyasidan ham shu qadar qo‘rqib umr kechiradiki, asta-sekinlik bilan bu tuzalmas kasallikka, ruhiy metamorfozaga aylanib qolganligini his qilish mumkin. Mana shu haqqoniy hayot manzarasi “Go‘r o‘g‘li” romanining mavzu-mundarijasini tashkil qiladi.

“Birinchi bo‘lishdan ko‘ra so‘nggi bo‘lish naqadar og‘ir. Sen ota-bobolaring yozib kelgan, zamonlar changalida beshafqat va quturgan sellar hayot qoyasidan ulkan-ulkan halqalarni ham surib ketgan, vaqti-vaqti bilan yog‘ib turadigan tarix yomg‘irlari ham o‘chira olmagan, qissaga so‘nggi nuqta bo‘lishingni eslashning o‘ziyoq dahshat! Nechog‘li alamnok bo‘lmasin, sen o‘z ajdodlaring yaratgan dostonning so‘nggi varaqlarisan – sendan keyin bu jumla davom etmaydi, tabiat sening ajdodlaringga bergan hayot sha’mi mana shu jumla bilan mangu o‘chadi!

Ta’qiblar va uvlashlar uning a’zolarini ham asta-sekin o‘zgartira boshlagan edi – uning qo‘li va oyoqlarida bilinar-bilinmas panjasimon tuyuqlar o‘sib chiqayotgani,

tovushi tiliga bo‘ysunmasdi, vodarig‘, uning uvlashga moyil bo‘g‘zidan ma'rashga o‘xshash tovush otilib chiqayotganini anglagan paytda naq telba bo‘lib qolayotgan edi”[Eshonqulov N. 4: 167-168].

Keltirilgan parchada yozuvchi insoniy fazilatlarining sindirilishi, millat va xalqning boshiga tushgan azim ko‘rguliklar o‘z ifodasini topgan. Har qanday joyda hibxona va zulm mashinalari javlon urib turgan qattol tuzum nayranglarida ruhiyati va shaxsiyati, haq-huquqlari toptalgan ziyoli bir ShAXSning o‘tmishiga bolta urilishi, bora-bora miyaning ichidagi azim qadriyatlarining toptalishi natijasida millat yo‘qotilishi bor gap. Har qanday sharoitda u o‘zligini ong osti (tush ta'biri)da aniq chamalay olishi ishonchni oqlaydi. Negaki, N. ismli qahramon ruhan o‘ldirilgan, unga jismoniy o‘lim sharpalari bora-bora ta'sir qilmay qo‘ymoqda. Mana shu jirkanch manzara qahramonning aniq hayot prinsiplarini ko‘rsatishga yo‘naltiriladi. O‘tmish va ayni yashayotgan zamonining mazmunsizligi, qo‘rquv va qochish istagida umr kechirishi insonning dahshatli og‘riqlari ekanligi ayonlashadi. Buning natijasida yozuvchi juda ko‘plab masalalarni keltirganki, undan xohlagancha xulosalar chiqarish mumkin. Sobiq qattol tuzum o‘yinlarida minglab ziyolilarning shahid bo‘lishi roman poetiksida ramzlar tilida o‘z ifodasini topganligini unutmashimiz lozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, “...Freyd XX asrga xos yovuzlik, qullik, mutelik, ruhiy kasalliklar, axloqiy buzilishlar, ma'naviy yuzsizliklar, e'tiqodsizlik va iymon sustligini insonning ichki istak kechinmalariga e'tiborsizligi yoki bu kechinmalarni zo‘rlilik bilan jilovlab qo‘yishda deb tushuntiradi. Freydning bu nazariyasi tush haqidagi qadim tasavvurlarga fan olamini jalb etdi va tush bilan shug‘ullanuvchi yangi ruhiy tahlil usuli vujudga keldi”[Eshonqulov J. 5: 104-105.]. Tushning ilmiy asoslarga tayanib, fan tilida ramzlar deb yutilishi mana shu olimlar nomi bilan bog‘liq holda taraqqiy etdi. Badiiy adabiyotda alohida bir o‘rganilishi lozim bo‘lgan nazariy aqidalarni tartiblashtirdi. Negaki, ramzlar tili – universal hodisa: unda mifologik maktab vakillari ham o‘zlarining qarashlarini erkin ifodalash manerasini yarata oldilar. Tush va mif masalasi epik asarlarni ham tekshirish ob'ekti sifatida teranlik kasb etdi. Mana shu konseptual qarashlar – tush o‘zimizni o‘rab turgan olam bilan erkin muloqotga kirishish jarayonini tezlashtirishga keng imkon berganligida qabarib ko‘rina boshladi.

Umuman olganda, yozuvchi Nazar Eshonqul “Go‘r o‘g‘li yoxud Hayot suvi” romanida tush modifikasiyasi qahramonni kecha va bugunni anglashga, ajdodlari yaratgan bebaho tarix va millat sifatida yashab qolish instinkiti hamon mavjudligini tan oldirishga qaratiladi. Chunki N. ismli qahramon mulohazalarida polifonik nutq hodisasi murakkab ko‘rinishdadir. U hayotni sizni bizga o‘xshab shunchaki jismoniy yashab ketish maydoni sifatida qaramaydi. Din va dunyo, uning oldida tarix va

kelajak haqida jiddiy qayg‘urishlik yotadi. Mehr va shafqat tushunchalarining tabiiy ravishda toptilishi, sun'iy mafkuralarning millat ongi va tafakkuriga singdirilishi qahramonni katta qiynoqlar girdobiga tashlaydi. Ayniqsa, lahadda yotish, u erda o‘y surish, shirin jonning omonatini Yaratganga bekamu ko‘st topshirish uning yagona orzusi. Atrofidagi har xil toifadagi qatlam vakillari bunga sira imkon bermaydi. G‘animlar va g‘alamislar olamida umr kechirishi N. ning g‘ashini keltiradi. Mafkuraning simsiz to‘rlarida bir umrga bandi bo‘lgan ruhning kechmishlari qahramonni jiddiy sinovlardan o‘tkazadi. Ayniqsa, shunday yashash uning mute qalbini larzaga soladi. Yaratgandan boshqa bandaga qul bo‘lish insonning eng o‘jiz va notavon hayot kechirishidir degan xulosaga keladi. Yozuvchining eng katta muhim gapi ham aslida shundan iborat bo‘lsa, ajabmas!

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Eshonqulov J. Follkor: obraz va talqin. –Qarshi. “”Nasaf. 2000. –B.172.
2. Eshonqul Nazar. Go‘ro‘g‘li yoxud Hayot suvi. –T: “G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi”. –B.302.
3. Erix Fromm. Inson qalbi. –T: “O‘zbekiston”. 2018. –B.104.